

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA YA'NI (O'QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI YANGI PED TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH

Samadova Nasiba Sirojiddinovna

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotasiya: Ushbu maqolada, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga xorijiy tillarni ya'ni ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy metodlar va yangi pedagogik texnologiyalar haqida ayrim ma'lumotlar va xulosalar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, chet tili, axborot kommunikatsiya vositalari, audio, multimedialar, o'yin texnologiyalari.

XXI asr bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Amaliyotda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin. Insonparvarlik va demokratik pedagogik munosabatga asoslangan pedagogik texnologiyalar (shaxsiy munosabatni shakllantirish, yakka holdagi yondoshuv, demokratik boshqaruv, insonparvarlikka yo'naltirilgan texnologiyalar), ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi) o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Dasturli o'qitish, differentsiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborot texnologiya kabi o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruksiya qilishdagi pedagogik texnologiyalar. Aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar.

Texnologiya – biror ishda, san'atda, mahoratda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yigindisi. (Izohli lugat).

Pedagogik texnologiya tushunchasi: ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z orniga ega bo'lgan keng ko'lamlı serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatlari bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi). Pedagogik texnologiya– Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-

ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov).[¹]

Dars jarayonlarini tashkil etishda yangi peadagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini o'rtiradi. Pedagogik texnologiyalarning zamomaviy ko'rinishlaridan biri bu dars mashgulotlarida multimedia vositalaridan ya'ni audio va taqdimot materiallaridan foydalanish ham darsning sifatini oshishiga sabab bo'ladi.

Multimedia vositalari (multimedia – ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.[²].

Bolalarga chet tillarni o'rgatishda interfaol metodlarning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'gan o'yin metodlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ham "Aujurli arra" metodi va "Pictionary" (Rasm chizish) metodi va "Tartibsiz harflar" (Letter Scramble) metodlari batafsil bayon etiladi.

Ajurli arra» metodi. Ajur fransuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi. Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: -o'quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi; talaba-o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar) ga qir qiladi; mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarning har bir a'zosiga tarqatiladi; kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar; kichik guruhlarning yaxshi o'zlashtiruvchi a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi; ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni xamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o'rgatish rejasini egallashadilar; ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o'rganganlarini boshqa sheriklariga o'rgatishadi. O'qitishga bunday yondashilganda -o'quvchilarning xamkorlikda ishlariga va katta hajmdagi o'quv materiallarining o'zlashtirilishiga erishiladi. Bu metoddan foydalanuvchi pedagog - o'quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o'rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

"Pictionary" - Ko'pchilik ingliz tilida so'zlashuvchilar Pictionary- rasm chizish o'yini bilan yaxshi tanish. Rasm chizish maqsadi uchun siz oddiy doska yoki oq magnit doskadan foydalanishingiz mumkin. Sinfni 2 guruhga bo'lib oling va har bir jamoa uchun doskadaning bir tomonida jadval chizing. Siz jamoalarning ballarini shu yerga yozib borasiz. A jamoadan bir kishi chiqadi. Va ko'pgina teskari o'girilgan so'zlardan

1
2

bittasini tanlaydi va shu so'zni doskaga chizib beradi. Va boshqalar topishi kerak bo'ladi. So'zni birinchi bo'lib to'g'ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g'olib hisoblanadi.[³].

Letter Scramble (Tartibsiz harflar o'yinida - O'quvchilaringizga oxirgi marta o'rgangan so'zlarning ro'yxatini tuzing. Va biror so'zni harflarini chalkashtirib doskaga yozing. O'quvchilaringizga harflarni tog'ri tartibda qo'yib berilgan so'zni topishiga biroz vaqt bering. Kim birinchi bo'lib so'zni topa olsa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, bugungi kunda dars mashg'ulotlarini tashkil etishda yangoi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsning samaradorligini oshiribgina qolmay, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi va o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi va ushbu ped texnologiyalardan foydalanish DTS talablariga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uning bugungi kundagi zarurati <https://azkurs.org/zamonaviy-pedagogik-texnologiyalar-va-uning-bugungi-kundagi-za.html>.
2. https://www.tami.uz/matnga_qarang.php?id=581
3. <https://hasanboy.uz/ingliz-tili-darslarida-qiziqarli-oyinlar/>
4. "O'zbek tilining izohli lug'at" kitobi.